

Development Of The Maorif System During The Era Of The Shaybanids

Abdug'afforova Mohinur Abdusamat qizi

Master's student, Faculty of History,
Samarkand State University named after Sharof Rashidov

mohinurabdugafforova7@gmail.com

+99893-638-38-23

Annotation

This article scientifically analyzes the formation of the education and enlightenment system in Movarounnahr during the Shaybanid dynasty, the role of madrasahs in social life, and their contribution to the development of science. The study, using historical sources and modern scientific literature, highlights the specific aspects of the education system during the Shaybanid era, the activities of educational institutions, and issues of state patronage.

Keywords: Shaybanids, enlightenment, madrasah, Ubaydullah Khan.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasi davrida Movarounnahrda ta'lim va maorif tizimining shakllanishi, madrasalarning ijtimoiy hayotdagi o'rni hamda ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda, Shayboniylar davridagi maorif tizimining o'ziga xos jihatlari, ta'lim muassasalarining faoliyati va davlat homiyligi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shayboniylar, maorif, madrasa, Ubaydullaxon, ilm-fan, Abdullaxon II, vaqf, Buxoro, Movarounnahr.

KIRISH

XVI asr boshlarida Movarounnahrda siyosiy hokimiyat tepasiga kelgan Shayboniylar sulolasi mamlakatda siyosiy barqarorlikni o'rnatish bilan bir qatorda ilm-fan va maorif rivojiga alohida e'tibor qaratdi. Ular islomiy qadriyatlarni tiklash, diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirish siyosatini yuritganlar. Ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Toshkent va Balx kabi shaharlar ta'lim va ilmiy markazlarga aylangan.

Shayboniylar davrida maorif tizimi maktab va madrasalar asosida shakllangan bo'lib, ularning faoliyati ko'p hollarda vaqf mablag'lari bilan ta'minlangan. Bu davrda ilmga bo'lgan e'tibor faqat diniy doira bilan cheklanmay, dunyoviy fanlarni ham o'z ichiga olgan.

TADQIQOT METOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va manbashunoslik uslublari qo'llanildi. Maqola yozishda Shayboniylar davri tarixiga oid asosiy yozma manbalar – Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoe"¹, Mirzo Muhammad Haydar Dug'latning "Tarixi Rashidiy"² asarlari hamda zamonaviy tarixiy tadqiqotlar, jumladan Q. Rajabovning "Ubaydullaxon"³ nomli risolasi tahlil qilindi.

¹ Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati 1532-yilgacha bo'lgan tarixi xaqida kitob.

² "Tarixi Rashidiy" XIV—XVI asrlar Markaziy Osiyo, jumladan, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston, qisman Tibetning siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy, madaniy xayoti, chunonchi, davlatchilik tizimi, xalkaro munosabatlari, jug'rofiyasi, etnografiyasi, etnogenezinini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Asar 2 daftardan tashkil topgan. Birinchi daftarda Movarounnahr va Sharqiy Turkistonda o'tgan Chingizxon, Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur avlodlarining XVI asr o'rtalarigacha bo'lgan davr tarixi, sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari hamda Boburiylar, kolaversa, Shayboniylar, Amir Husayn, dug'lot amirlari, ulus beklarining faoliyatlari yoritilgan.

Ikkinchi daftar muallifning sarguzashtlari, zamonasining buyuk siymolaridan eshitganlari yozilgan dalillar bilan to'lib- toshgan kundalik daftari xisoblanadi.

"Tarixi Rashidiy"da Markaziy Osiyo madaniy hayoti, u davr namoyandalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

³ Rajabov Qahramon. Ubaydullaxon (risola) / Q. Rajabov, E. Ochilov; loyiha muallifi Q.K. Rajabov. - T.: «ABU MATBUOT-KONSALT» nashriyoti 2011.32 b. (Tarix va taqdir). Risolada yirik davlat arbobi, jasur sarkarda, tanikli din va tasavvuf namoyandasi, yetuk zullisonayn shoir hamda fan va madaniyat xomiyi sifatida XVI asr Turkiston siyosiy-ijtimoiy, diniy-tasavvufiy, adabiy-madaniy hayotida katta o'rin tutgan Buxoro xoni Ubaydullaxonning jangu jadallarga to'la suronli xayoti, serqirra faoliyati, adabiy mero-sining janriy tarkibi va mavzu ko'lamini, diniy

NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Shayboniylar davrida maorif tizimi quyidagi jihatlar bilan ajralib turgan:

1. Ta'limning ikki bosqichli tizimi shakllangan: boshlang'ich maktablar va madrasalar. Boshlang'ich maktablarda Qur'on o'qish, arab alifbosini o'rganish, axloqiy saboqlar asosiy yo'nalish bo'lgan. Madrasalarda esa diniy (fiqh, tafsir, hadis) va dunyoviy (mantiq, falsafa, tarix, matematika, astronomiya) fanlar o'qitilgan.
2. Vaqf tizimi orqali ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'lga qo'yilgan. Madrasalarning ko'pi vaqf mablag'lari hisobiga faoliyat yuritgan. Vaqfnomalarda mudarrislar, talabalar, va xizmatkorlar uchun belgilangan oyliklar qayd etilgan.
3. Buxoro ilmiy markazga aylangan. Ayniqsa, Abdullaxon II davrida (1557–1598) Buxoro yirik madaniy va ilmiy markaz bo'ldi. U tomonidan "Mir Arab" madrasasi ta'mirlangan, yangi kutubxonalar tashkil etilgan.
4. Olimlar va adiblar faoliyati kuchaygan. Zayniddin Vosifiy, Mirzo Muhammad Haydar Dug'lat boshqa mutafakkirlar ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shganlar. Ularning asarlarida Shayboniylar davridagi maorif, ta'lim jarayoni va ilmiy muhit haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Xususan, Qahramon Rajabov o'z tadqiqotlarida Shayboniylar sulolasining yirik vakillaridan biri — Ubaydullaxon (1487–1540) haqida so'z yuritarkan, uni "ilmu madaniyat homiysi" sifatida ta'riflaydi. Bu baho bejiz emas, chunki Ubaydullaxon ilm-fan, adabiyot va madaniyatga katta e'tibor bergan, olim va shoirlarni qo'llab-quvvatlagan, madrasa va kutubxonalar bunyod etgan hukmdorlardan biri edi.

MUHOKAMA

Shayboniylar davrida ta'lim jarayoni islomiy qadriyatlar bilan uyg'un ravishda tashkil etilgan. Bu davrda madrasalar nafaqat diniy bilim o'chog'i, balki ijtimoiy-siyosiy fikr shakllanadigan ilmiy markazlar sifatida ham faoliyat yuritgan.

Madrasalar va kutubxonalar o'sha davrda ilmiy tafakkurning rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Ko'plab qo'lyozmalar, asarlar va tarjimalar ana shu ilmiy muhitda yaratilgan. Davlat tomonidan maorifga bo'lgan e'tibor, vaqf tizimi orqali ta'limning barqaror moliyaviy ta'minoti, ilm ahliga ko'rsatilgan hurmat — ularning barchasi Shayboniylar davrida ilm-fan taraqqiyotini ta'minlagan asosiy omillar bo'lgan. "Muhammad Yusuf Munshiy ta'biri bilan aytgan-da, "adolat shevasida yagona, jang sohasida nihoyatda farzona" bo'lgan, "dilovar va bahodir" Ubaydullaxon jangu jadal olib borish, mamlakatni siyosiy-iqtisodiy jihatdan, mustahkamlash bilangina kifoyalanib qolmay, ilm, madaniyat va adabiyotga ham katta e'tibor bergan. Hasanxoja Nisoriyning ma'lumot berishicha, bu xon "dargohining mulozimlari ko'pincha fozillar bo'lardi". U tasavvufga oid asarlarni yig'ib, boy kutubxona tashkil etgan. Manbalarga ko'ra, XVI asrning boshidan to o'rtalarigacha Buxoro adabiy muhitida 112 shoir yashab ijod etgan. Ulardan 11 nafari sohibdevon shoirlar edi. Ro'zbehon Isfahoniy, Zayniddin Bosifiy, Abdurahmon Mushfiy, Hasanxoja Nisoriy, Naxdiy Buxoriy, Devona Husomiy kabi mashhur shoirlar shular jumlasidandir. Ubaydullaxon saroyida ham ko'plab shoirlar to'plangan edi. Xon va shayxulislom Xoja Hoshimiy Siddiqiy ijod ahlini qizg'in qo'llab-quvvatlaganlar. Buxoro muhiti Movarounnahrda alohida nufuzga ega bo'lgan. Zayniddin Vosifiyning yozishicha: "Ul Hazratning odati shu ediki, ha kuni bir she'rni o'rta tashlab, unga tatabbu va javob yozishg shoirlarni undardilar. Derdilarki, ta'bni bekorga o'tkazmanglar uni mashg'ul qilmoq lozim. Sustlik ta'bning bo'shashishiga sabab bo'ladi va zehnni o'tmaslashtiradi". Bu borada Ubaydullaxonning o'zi barchaga o'rnak bo'lib, hozirjavoblik va topqirlikda hech kim uning oldiga tusholmasdi. Ubaydullaxon, ayniqsa, muammoni yechishga jula usta edi Zayniddin Vosifiyning 79 muammosidan 65 tasini nomsiz topgan."⁴ Hasanxoja Nisoriyning ma'lumotlariga ko'ra, Ubaydullaxon dargohida xizmat qilgan shaxslarning aksariyati ilmi, fozil kishilar bo'lgan. Bu

va tasavvufiy ruxdagi asarlarining botiniy mazmun-mohiyati, shoirlik mahorati va she'rlari badiiyati haqida ilmiy-ommabop usulda hikoya qilinadi. Risola keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

⁴ Rajabov Qaxramon. Ubaydullaxon (risola)

holat hukmdorning ilm ahli va ziyolilarga nisbatan yuksak ehtirom bilan munosabatda bo'lganini, ma'rifatparvarlik siyosatini izchil amalga oshirganini ko'rsatadi. Ubaydullaxon tasavvufga oid asarlarni yig'ib, boy kutubxona tashkil etgan. Mazkur kutubxona ilmiy, falsafiy va ma'naviy bilimlarning markaziga aylangan bo'lib, o'z davrida maorif taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan. Ubaydullaxon saroyida ko'plab shoir va olimlar jamlangan. Xon hamda shayxulislom Xoja Hoshimiy Siddiqiy ijod ahlini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab, ularning ijodiy faoliyati uchun qulay sharoit yaratganlar. Shu boisdan XVI asrda Buxoro Movarounnahrda eng nufuzli ilmiy va madaniy markazlardan biriga aylangan.

Zayniddin Vosifiy o'z asarlarida Ubaydullaxonning har kuni she'riy mushoiralar tashkil etganini, shoirlarni bir-birlariga tatabbu va javob yozishga undaganini qayd etadi. Hukmdorning "ta'bni bekorga o'tkazmanglar, uni mashg'ul qilmoq lozim" degan so'zlari uning badiiy ijod va fikrlash jarayoniga bo'lgan yuksak e'tiboridan dalolat beradi. Bunday an'analar ijodkorlarning estetik tafakkurini rivojlantirish, ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilgan.

Ubaydullaxonning o'zi ham ijodiy jarayonlarda faol ishtirok etgan, muammo yechish, hozirjavoblik va topqirlikda o'z zamondoshlari orasida yuksak obro' qozongan. Bu esa hukmdorning ma'rifat va ijodni faqat nazariy jihatdan emas, amaliy tarzda ham qo'llab-quvvatlaganini ko'rsatadi. Shu jumladan, "Abdullaxon II iste'dodli shoir bo'lib, she'riyatda "Xon" taxallusini qo'llagan. Mutribiy o'zining "Tazkirat ush-shuaro" (1605-yil, aprel-may)sida uning shoirligi haqida alohida ma'lumotlar berib, o'zbekcha va forscha she'rlaridan namunalar keltiradi"⁵ Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma"sida – "Fazlu donish ham benihoyat o'sdi. (Ilgari) quriy boshlagan ilm va kamol niholi u tarbiyalayotgan yomg'ir tomchilari barakotidan kun sayin yashnadi. Umid va tinchlik gulzori uning ehson va saxovatidan biringketin ko'kardi hamdaserob bo'ldi. Uning marhamati shamolidan islom gulshanida har kuni xursandlik g'unchalari ochildi. Uning aziz bulutidan zamon chamanida har soatda fazilat niholi bosh ko'tardi. Ul hazratning g'olib davlati va zohir inoyati barakotidan u mamlakatlarning ko'pchiligilmlar bulog'i va fazilat hamda hunar manaylandi. Xususan, qubbat ul-islom Buxoro, (Tangri) uni ofat va balolardan saqlasin, a'lo hazratning kelishi bilan din ulamolarining to'plangan joyiga, yaqin arboblarning matlaiga, avliyo va pokiza (kishi)larning qiblasiga, ulug' va marhamatlarining Ka'basiga, taqvo ahllarining markazi, obid va zohidlarning omonlik joyiga hamda aktob va avtodlarning maskaniga aylandi"⁶ ta'rif beradi. Mazkur parcha o'z davrining hukmdori (Abdullaxon II) ga bag'ishlab yozilgan badiiy manba bo'lib, unda hukmdorning ilm-fan va din homiysi sifatidagi obrazini yaratish uchun ko'plab isti'ora, mubolag'a va tashbehlardan foydalanilgan. Muallif hukmdorni "fazlu donishning yomg'ir tomchisi", "marhamat shamoli" va "aziz bulut" sifatida tasvirlaydi. Bu ramzlar orqali hukmdorning davlat siyosati ilm va ma'rifatni sug'oruvchi, hayot baxsh etuvchi manba sifatida talqin etilgan. "Ilm va kamol niholi" timsoli o'sha davrda ilm-fanning zaiflashgan, ammo adolatli hokimiyat va homiylik tufayli qayta tiklanganini anglatadi. "Umid va tinchlik gulzori" iborasi esa ijtimoiy osoyishtalik, adolat va farovonlikning qaror topganini bildiradi.

Muallif hukmdorning faoliyatini nafaqat siyosiy muvaffaqiyatlar bilan, balki islom dunyosida ma'naviy uyg'onish bilan ham bog'laydi: "Islom gulshanida har kuni xursandlik g'unchalari ochildi" degan jumla bu davrda diniy hayotning faol bo'lganini ko'rsatadi. Parchaning eng diqqatga sazovor joyi — Buxoro shahrining tasviridir. "Qubbat ul-islom Buxoro, (Tangri) uni ofat va balolardan saqlasin, a'lo hazratning kelishi bilan din ulamolarining to'plangan joyiga, ... taqvo ahllarining markaziga aylandi." Bu jumlar Shayboniylar davrida Buxoroning ilm-fan, fiqh va tasavvuf markazi sifatida mustahkam o'rin egallaganini tasdiqlaydi. Muallif Buxoroni "Ka'ba",

⁵ Nisoriy Hasanxoja: Muzakkiri ahhob (Do'stlar yodnomasi): Tazkira [(Tarj. hamda so'z boshi va izohlar muallifi Ismoil Bekjon]. T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, ... b. 287-bet.

⁶ Hofiz Tanish al-Buxoriy.

Abdullanoma ("Sharafnomayi shohiy"). Birinchi kitob; Fors tilidan S.Mirzayev tarj.; So'z boshi va izohlar muallifi: B. Axmedov. —T.: "Sharq", 1999. -416 b. 179-bet

“qibla”, “markaz”, “maskan” kabi soʻzlar bilan ulugʻlab, uni butun islom olamining diqqat markaziga aylantiradi. Bu esa manbaning diniy va siyosiy ideologik funksiyasini ochib beradi — hukmdorni “islom homiysi” sifatida tasvirlash orqali uning hokimiyatini ilohiylashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu manbada koʻzga tashlanadigan badiiy ifoda vositalari — tabiat unsurlari orqali ilohiy marhamatni ifodalash usulidir. “Bulut”, “shamol”, “gʻuncha”, “yomgʻir” kabi ramzlar orqali hukmdor rahmati Tangrining rahmatiga qiyos qilinadi. Bu esa Shayboniylar davri adabiyotida keng qoʻllanilgan islomiy metaforik uslubning yorqin namunasi hisoblanadi.

Bu davrda shakllangan maorif tizimi keyinchalik Buxoro amirligi davrida ham davom ettirilib, Markaziy Osiyo ilmiy hayotining uzluksiz rivojiga xizmat qilgan.

XULOSA

Tahlil qilingan manbalar va tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, Shayboniylar davrida ilm-fan, madaniyat va maʼnaviyat homiysi sifatida yuksak qadrlangan shaxslar faoliyat koʻrsatgan. Ular olim va shoirlarni doimiy qoʻllab-quvvatlagan, madrasalar va kutubxonalar tashkil etgan, ilmiy va maʼnaviy markazlarning faoliyatini rivojlantirgan. Ziyolilarga boʻlgan yuksak ehtirom va tasavvufiy hamda falsafiy asarlarni yigʻib boy kutubxona yaratish ularning maʼrifatparvar siyosatini amaliy tarzda amalga oshirishiga xizmat qilgan. Shuningdek, saroyda tashkil etilgan sheʼriy mushoiralar va ijodiy faoliyatni ragʻbatlantirish anʼanalari Buxoroni XVI asrda Movarounnahrning eng nufuzli ilmiy va madaniy markaziga aylantirgan. Badiiy manbalarda saxovat va rahmat tabiat timsollari orqali ifodalangan boʻlib, ilm, madaniyat va diniy hayotga qoʻshilgan beqiyos hissa yanada yorqinlashtiriladi. Natijada, Shayboniylar davrida nafaqat siyosiy, balki ilm-fan, adabiyot va maʼnaviyat homiysi sifatida tarixiy manbalarda yuqori baholangan shaxslar faoliyati davrning maʼnaviy, ilmiy va madaniy rivojlanishida markaziy oʻrin tutgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ;

- Zayniddin Vosifiy. Badoyeʼ ul-vaqoeʼ. Fors tilidan N. Norqulov tarj.;- Toshkeny Gʻaffur Gʻulom nomidagi Adabiyot va saʼnat nashriyoti, 1979.
- Zaylobidinovna, R. G. (2022). Comparative Study of the Names of Children's Games in Uzbek and English. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(8), 136-138.
- Zokirova, S., & Xusanova, G. (2024). SOSIOLINGVOMADANIYATSHUNOSLIK KONTEKSTIDA BOLALAR OʻYINLARI TUSHUNCHASI. *Fargʻona davlat universiteti*, (3), 547-547.
- Оспанова, Ф. Б. Динамика изменений в сельском хозяйстве, теория трансакционных издержек и оптимизация.
- Ospanova, F. B. OPTIMISATION OF TRANSACTION COSTS IN AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN THROUGH CLUSTERING OF AGRARIAN SPHERE. *Science and Education in Karakalpakstan ISSN 2181-9203*, 205.
- Janabergenova, G. (2021). OPTIKA BOʻLIMINI OʻQITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH. *Scientific progress*, 1(5), 460-464.
- Ембергенова, М. (2025). Употребление Слов, Заимствованных Из Русского Языка И Посредством Русского Языка В Произведениях И. Юсупова. *TLEP–International Journal of Multidiscipline*, 2(5), 150-151.
- Soliyeva, Z., & Xamroqulov, A. (2024). THE ROLE OF HOMEWORK IN TEACHING PRIMARY SCHOOL CHILDREN. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 116-119).
- Mirzo Muhammad Haydar Dugʻlat. Tarixi Rashidiy. –Toshkent “Oʻzbekiston” -2011.
- Hofiz Tanish Buxoriy.Abdullanoma (“Sharafnomayi shohiy”). Birinchi kitob; Fors tilidan S.Mirzayev tarj.; Soʻz boshi va izohlar muallifi: B. Ahmedov.—T.: “Sharq”, 1999.
- Rajabov Qahramon. Ubaydullaxon (risola) / Q. Rajabov, E. Ochilov; loyiha muallifi Q.K. Rajabov. - T.: “ABU MATBUOT-KONSALT” -2011.

Nisoriy Hasanxoja: Muzakkiri ahbob (Do'stlar yodnomasi): Tazkira [(Tarj. hamda so'z boshi va izohlar muallifi Ismoil Bekjon]. T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, ... b.
Muhamad Yusuf Munshiy. Tarixi Muqimxon. Fors tilidan A.A.Semenov tarj.;- Toshkent, 1956
Zamonaviy tadqiqotlar va maqolalar.
Mutribiy. "Tazkirat ush -shuaro".